

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TALIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

The stamp is circular with a blue ink impression. The outer ring contains the text "REPUBLICA O'ZBEKISTON \* OZBEKISTON RESPUBLIGASI \* DAVLAT UNIVERSITETI \* GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI \* TASDIQLAYMAN". The center features a stylized emblem with a central figure, possibly a Minaret or a similar symbol, surrounded by text and decorative elements.

**Guliston davlat universiteti**

**rekтори** \_\_\_\_\_ **M.T.Xodjiyev**

«08 06 2024»

## **60510100 - BIOLOGIYA (TURLAR BO'YICHA) MUTAXASSISLIGI BO'YICHA IKKINCHI TA'LIMGA KIRISH SINOVLARI**

DASTURI


Guliston – 2024

Guliston davlat universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil "\_\_\_"  
"\_\_\_" №\_\_ - sonli majlisda ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

**Tuzuvchilar:**

O.Yunusov

GulDU, Tabiiy fanlar fakulteti,  
Biologiya kafedrasi mudiri, PhD,  
dotsent.



F.Gaibnazarova

GulDU, Tabiiy fanlar fakulteti,  
Biologiya kafedrasi dotsenti, PhD.

**Taqrizchi:**

N.Sultonova

GulDU, Tabiiy fanlar fakulteti,  
Biologiya kafedrasi dotsenti, PhD.

## Kirish

60510100 - Biologiya (turlar bo‘yicha) mutaxassisligi bo‘yicha ikkinchi ta’limga kirish sinovlari dasturi O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan 24.07.1999 yilda tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 06.08.1999 yilda №794 raqam bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida ikkinchi ta’limni olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, 60510100 – Biologiya (turlar bo‘yicha) mutaxassisligi bo‘yicha ikkinchi ta’lim olishga da’vogarlar:

-talaba umumiy Biologiya fanining maqsadi va vazifasi. Fanning turli davrlarda rivojlanish bosqichlari. Fanni o’rganishning asosiy usullari. Hujayra biologiyasi hamda yerda hayotning xilma-xilligi, Xromosomalarning tuzilishi, ko‘payish, ontogenezning genetik asoslari haqida tasavvurga ega bo‘lishi (**bilim**);

- yerda hayotning paydo bo‘lishi, evalyutsion ta’limot, insonning biosferaga ta’siri, Tur hosil bo‘lish jarayoni, irsiyatning sitoilogik va moiekulyar asosiari, tur ichida duragaylashda irsiyat qonunlari. Allelmas genlarning o‘zaro ta’siri natijasida belgilarning naslga o‘tishini bilishi va ulardan foydalana olishi (**ko‘nikma**);

- biologyaning zamonaviy metodlari va asbob-uskunalarini bilan ishlash ko‘nikmalari bilan tanishish. Hayotning xilma-xilligini kuzatish, Biogenezning asosiy bosqichlari va ulaming tajribada isbotlanishi. Evolyutsiya jarayonining asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish. Biosferaga antopogenezning ta’sirini tahlil qilish seleksiyada sun’iy mutagenez usullarini qo‘llash, tanlash samaradorligi va uni oldindan aniqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak (**malaka**).

## **IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning test tizimi doirasida biologiya fanidan talabgor (abiturient) larning bilim darajasini aniqlashdan iborat.

### **I. TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH UCHUN ASOS BO‘LUVCHI ME’YORIY HUJJATLAR**

- Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olish tartibi to‘g‘risida”gi 2021-yil 24-sentabrdagi 606-son qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2020-yil 12-oktyabrdagi 646-son qarori;
- Biologiya faniga oid amaldagi davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi.

### **II. QAMRAB OLINGAN BO‘LIMLAR**

Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi asosida Biologiya fanining quyidagi bo‘limlari qamrab olinadi:

1. Botanika
2. Zoologiya
3. Odam va uning salomatligi
4. Umumiy biologiya

#### **Imtihonni baholashda quyidagi mezonzlardan kelib chiqiladi:**

Ikkinchi oliy ta’lim olish istagini bildirganlar universitet qabul komissiyasiga Nizom talablarida keltirib o‘tilgan hujjatlarni rasmiylashtirib topshirganlaridan so‘ng, barcha Biologiya fanlar uchun uslubiy asos va manba bo‘lib xizmat qiluvchi “Botanika”, “Zoologiya”, “Odam va uning salomatligi”, “Umumiy biologiya”

fanilaridan 50 (ellik) ta test savollaridan iborat sinov topshiradilar. Mazkur test savollari abiturientlar uchun kirish imtixonlari maktab va litsey darsliklari asosida tuziladi. Kirish sinovi-test jarayonining adolatli o‘tishini ta’minlash maqsadida test universitetning multimediya markazida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanilgan holda o‘tkaziladi. Test sinovlari jarayonining davomiyligi 50 daqiqani tashkil etadi. Har bir to‘g‘ri javob berilgan test savoliga 2,0 (ikki) ball beriladi. Test sinovlarida to‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ball mos ravishda 100 (yuz) ballni tashkil etadi. Eng yuqori ball to‘plaganlar universitet qabul kvotasi doirasida ikkinchi ta’lim olishga tavsiya etiladilar.

*Izoh: Saralash bali foiz xisobida 55 dan kam bo‘lmasligi lozim. 2-chi oliy ta’lim olishga da’vogarlar saralash balidan yuqori ball to‘plaganlar orasidan yuqoridan pastga ketma-ketlik asosida tavsiya etiladi.*

### **Imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Imtihon komissiyasi faoliyati 2024-2025 o‘quv yili komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Imtihon komissiyasi tarkibi, odatda, uch nafar a’zodan kam bo‘limgan holda tashkil etiladi.

Imtihon natijalari o‘tkazilgan kundan kechiktirilmagan holda e’lon qilinadi. Imtihon natijalaridan norozi abiturientlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

### **Apeilyasiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Apellyasiya komissiyasi imtihon komissiyasi faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi bilan bir paytda 2024-2025 o‘quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Abiturient imtihon natijalari e’lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat etishi mumkin. Aks holda, ko‘rsatilgan muddatdan keyin qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Abiturient tomonidan bildirilgan murojaat ko‘rib chiqiladi va 24 soat ichida xulosalar ma’lum qilinadi.